



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

8-son (5-jild)

2025

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 8 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### **07.00.00- TARIX FANLARI:**

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### **08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:**

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### **09.00.00- FALSAFA FANLARI:**

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

### **10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:**

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Baxranov Sherzod*

O'ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ  
MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O'RNI ..... 10-16

*Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna*

Milliy Hunarmandchilik: Usta-Shogird Munosabatlarning  
Transformatzion Jaryonlari ..... 17-21

*Sattarova Marhabo Mamatovna*

O'zbekistonda Millatlararo Tolerantlik va uning madaniy-siyosiy  
Jaryonlariga ta'siri ..... 22-30

*Raxmatov Mirjon*

Buxoro viloyatida bojxona tizimining shakllanishi tarixidan ..... 31-38

*To'xtasinov Mira'zam*

Somoniylar davlati: harbiy islohotlar va boshqaruv strategiyalari ..... 39-42

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Kuliboyev Azamat Shonazarovich*

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 43-48

*Azgarov Abdumutalib*

Internet-marketingning umumiyoq ovqatlanish korxonalarida  
qo'llanilishi holati tahlili ..... 49-56

*Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda*

Impact of industrial policy on the investment climate:  
international experience ..... 57-60

*Otabekov Javdod*

GO'SHT yetishtirish tizimini raqamlashtirish va "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI"  
imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'nalishlari ..... 61-68

*Navruzov Dilshod Ismatullayevich*

Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimini  
takomillashtirish orqali investitsion jozibadorlikni ta'minlash ..... 69-74

*Uralov Temur Boxodir o'g'li*

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUJJATLASHTIRISH  
VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 75-81

*Samandarov Og'abek*

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL  
modelining ahamiyati ..... 82-86

## **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Yuldashev Rustam Daniyorovich</i>	
YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI .....	87-93
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i>	
ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L .....	94-98
<i>Berdikulova Surayyo Aslamovna</i>	
IJTIMOIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI .....	99-104
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i>	
ZAMONAVIY O'ZBEKİSTON JAMIYATI SHAROİTLARIDA TA'LIM MADANIYATI .....	105-113
<i>Yarbaev Xasan Xazratqulovich</i>	
JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH: MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL .....	114-118
<i>Maxsudjonov Kamronjon</i>	
MA'RIFIY TASHKIOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIY MADANIYATIGA TA'SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI .....	119-123
<i>Qo'chqarov Oybek G'ulomovich</i>	
INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSİYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV .....	124-128
<i>Otaqulov Elyor Madiyorovich</i>	
EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI .....	129-136
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i>	
TUSHUNCHА USTIDA MANTIQIY AMALLAR .....	137-141

## **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Niyazov Ravshan Turakulovich</i>	
SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI .....	142-148
<i>Yunusova Xilola Ravshan qizi</i>	
KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI "V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA .....	149-154
<i>Absalamova Gulmira Sharifovna</i>	
LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIY TERMINLARNING NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA .....	155-158
<i>Dadajanova Aziza Karimullayevna</i>	
THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION: A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE .....	159-170
<i>Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna</i>	
YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI RAMZIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA) ERTAGI MISOLIDA .....	171-175
<i>Babajanova Iqbol Salomaddinovna</i>	
SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI .....	176-180

*To'xtayeva Sarvinoz*

DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI ..... 181-184

*Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi*

TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM  
MANBALARI QIYOSI ..... 185-189

*Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna*

CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING  
IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY .... 190-195

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*O'rinboyev Rustamjon*

A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES  
OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA ..... 196-206

*Uzakova Go'zal Sharipovna*

YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI ..... 207-212

*G'ofurova Dilafroz*

AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING  
KRIMINALISTIK TAJSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR ..... 213-218

*Komilov Avazbek Bokijonovich*

PROKUROR TAQDIMMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI  
BARTARAF ETISH MASALALARI ..... 219-223

*Juraeva Asal*

OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN ..... 224-228

*Ходжаева Ширин*

ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ  
СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ ..... 229-239

*Imomniyozov Doniyorbek*

SUN'YIY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK:  
IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR ..... 240-250

*Asadov Shahriddin Faxriddinovich*

XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI:  
SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN ..... 251-254

*Суннатиллаева Сарвиноз*

АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И  
КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА ..... 255-262

*Anarbayev Eldor*

KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ..... 263-269

*Ibrohimov Azimjon*

KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI:  
XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK ..... 270-278

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Qurbanov G'ulomjon G'afurovich*

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI,  
SHAKLLARI VA VOSITALARI ..... 279-285

<i>Safarova Nigora Nasilloyevna</i>	
TRANSFOMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI	
VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI .....	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i>	
OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i>	
FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING	
CLASSROOMS IN UZBEKISTAN .....	303-309
<i>Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi</i>	
INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARINI	
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI .....	310-314
<i>Hamidov Sherali Shirinovich</i>	
BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY	
TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI .....	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT	
QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i>	
TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA	
KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI .....	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i>	
"NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOIY	
HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING	
TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI .....	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE	
"DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE	
"INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT .....	337-341

Received: 20 July 2025

Accepted: 5 August 2025

Published: 10 August 2025

*Article / Original Paper*

## **MECHANISMS FOR IMPLEMENTING A STUDENT-CENTERED APPROACH IN HIGHER EDUCATION**

**Muxammadjonov Muslimbek Muxsinjon o'gли**

Lecturer at the Department of Education

e-mail: [muslimbekmuchsinvich@gmail.com](mailto:muslimbekmuchsinvich@gmail.com)

**Abstract.** This article analyzes the mechanisms for implementing a student-centered approach in higher education. As part of the study, the results of the questionnaire were analyzed, and the main indicators between the control and experimental groups were identified. In particular, in the Experimental Group, the educational process was organized based on the following principles: the curricula were redeveloped on a modular basis and enriched with practical tasks, lessons were organized based on the case method, problem situations, role-playing games and a project approach, and formative assessment, self-assessment and peer assessment criteria were included as assessment tools.

**Keywords:** centered approach, case method, problem situations, role-playing games.

## **OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI**

**Muxammadjonov Muslimbek Muxsinjon o'g'li**

Ta'lIM kafedrasi o'qtuvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'limda talaba markazli yondashuvni joriy etish mehanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida so'rovnama natijalari tahlil qilinib, asosiy nazorat va tajriba guruhlari orasidagi ko'rsatgichlar aniqlangan. Jumladan, Tajriba guruhida o'quv jarayoni quyidagi prinsiplarga asoslangan holda tashkil etilgan: o'quv dasturlari modul asosida qayta ishlab chiqilgan va amaliy topshiriqlar bilan boyitilgan, keys metodi, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar va loyihibaviy yondashuv asosida darslar tashkil etilgan, baholash vositalari sifatida formatif baholash, o'z-o'zini va tengdosh baholash mezonlari kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** markazli yondashuv, keys metodi, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N44>

### **KIRISH**

Oliy ta'lIM tizimi barcha bo'g'imgilarga xodimlarni yetkazib bergani uchun mamlakat rivojlanishida eng muhim omil hisoblanadi. Ta'lIM tizimini doimiy rivojlantirib borish xalqaro raqobat bardoshlikning asosiy talablaridan hisoblanadi. Uning ishlash mexanizmlarini doimiy tadqiq etib borish, mexanizmlarni farqlash ularning ta'sir doirasini o'lchash juda ham muhim hisoblanadi. O'zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik sharoitlarda ta'lIM tizimining samaradorligini oshirish, nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini, balki butun jamiyatning keljakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

"Oldimizda turgan eng muhim va dolzARB masalalardan biri – **yuksak ma'nnaviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlargi, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va**

**umuminsoniy qadriyatlar** ruhida tarbiyalashdan iborat ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz” [1] deb ta’kidladi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev.

Va shu o’rinda ijtimoiy omillar, iqtisodiy resurslar, madaniy qadriyatlar va texnologik innovatsiyalarning ta’lim tizimidagi o’zaro ta’siri uning samaradorligini belgilovchi muhim omillarni tashkil etadi. Misol uchun, ijtimoiy sharoitlar va oila holati o’quvchilarning o’qishga bo’lgan motivatsiyasini shakllantiradi, iqtisodiy resurslar ta’lim tizimining infratuzilmasi va o’qituvchilarning malakali tayyorgarligiga ta’sir qiladi, madaniy qadriyatlar ta’lim mazmunini va metodologiyasini shakllantiradi, texnologik yutuqlar esa ta’lim jarayonining interaktiv va global imkoniyatlarini yaratadi.

Ta’lim tizimida talaba markazli yondashuv mexanizmi ko’pgina rivojlangan mamlakatlarda tadqiq qilingan va o’z natijasini berib kelmoqda. Ushbu mexanzimni chuqurroq o’rganish va o’z milliy qadriyatlarimizni hisobga olgan holga transformatsiya qilish oliy ta’lim samaradorligini oshirish uchun muhim qadamlardan hisoblanadi. Shu sabablar bilan bu maqolada talaba markazli ta’lim mexanizmlarini amaliyot bilan bog’lash zamirida takliflar beramiz.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi omillarni o’rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar turli yo’nalishlarda amalga oshirilgan. Ushbu adabiyotlar tahlilida, ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik omillarni yoritishga qaratilgan muhim asarlar va ilmiy maqolalar keltiriladi. Tahlilning maqsadi – mavjud tadqiqotlarni umumlashtirish va ta’lim tizimini yaxshilashga qaratilgan usullarni aniqlashdir.

N.K.Yo’ldoshev, G.E.Zaxidovning “Menejment” darsligining kirish qismidayoq mualliflar ta’lim va boshqaruvning zamonaviy talablarga mos bo’lishi, mehnat jamoalari, tashkilotlar, va ayniqsa boshqaruv tizimining samaradorligini ta’minlashda menejment yondashuvlarining ahamiyatini alohida urg’u bilan ta’kidlaydi. Kitobda boshqaruv tizimini qayta shakllantirish, kasb egasi sifatidagi menejerlarni tayyorlash va boshqaruvda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish zarurati ta’lim tizimi nuqtai nazaridan asoslab berilgan.

Darslikning birinchi boblarida menejment nazariyasining rivojlanish bosqichlari, shu jumladan AQSh, Yevropa, Yaponiya va boshqa davlatlardagi boshqaruv modellarining shakllanishi yoritiladi. Ayniqsa, Amerika modeli, yapon modeli va g’arbiy Yevropa modellari bilan bog’liq qismlar ta’lim boshqaruvida qo’llanishi mumkin bo’lgan samarali yondashuvlar haqida boy ma’lumot beradi. Masalan, yapon menejmenti modelida insoniy resurslar, umrbod yollash, motivatsiya, sifat nazorati va jamoaviy qaror qabul qilish orqali sifatni oshirishga e’tibor qaratiladi. Bu yondashuvlar oliy ta’lim tizimiga ko’chirilganda, professor-o’qituvchilar tarkibining barqarorligi, jamoaviy muhokama madaniyati, ilmiy sifat ustidan ichki nazorat kabi mexanizmlar rivojlanadi.

Darslikda Amerikacha menejmentga oid modellar, jumladan, strategik rejalashtirish, korporativ boshqaruv, mehnat unumdoorligini oshirish va xodimlar bilan bevosita muloqot mexanizmlari asosida boshqaruv samaradorligini ta’minlash masalalari keng yoritilgan. Aynan bu bo’limlarda mualliflar boshqaruvda shaffoflik, qaror qabul qilishda ishtirokchilik, natijaga yo’naltirilganlik prinsiplarini ilgari suradi. Ular hozirgi O’zbekiston oliy ta’limida joriy etilayotgan kredit-modul tizimi va o’quv rejalarini erkinligini metodik jihatdan tushunishga asos beradi.

Darslikda “Insoniy resurslar menejmenti”, “Sifat menejmenti”, “Moliyaviy menejment”, “Innovatsion menejment” kabi alohida boblarda ko’rsatilgan yondashuvlar ta’lim sifati va uning strategik boshqaruvi uchun nazariy asos bo’lib xizmat qiladi. Masalan, innovatsion menejment bo’limida yangi texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv texnikalarini zamonaviylashtirish, raqamli texnologiyalarni boshqaruvga tatbiq qilish kabi yo’nalishlar ilgari surilgan bo’lib, bu jihatlar oliy ta’limni raqamlashtirish va zamonaviy ta’lim platformalarini tatbiq etish bilan bevosita bog’liqdir.

Mualliflar menejment tizimining asosiy shakllari, boshqaruv usullari va ularni takomillashtirish yo’llarini bayon etar ekanlar, zamonaviy rahbar shaxsiga bo’lgan talablar, o’zini o’zi boshqarish, liderlik, vaziyatlari yondashuv, tizimli fikrlash va o’zgarishlarni boshqarish bo’yicha yondashuvlarga alohida e’tibor qaratgan. Bu, o’z navbatida, OTMlar rahbariyatining sifat menejmentiga nisbatan yondashuvini ilmiy asoslash uchun nazariy zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, “Menejment” darsligi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish bo’yicha zamonaviy boshqaruv tamoyillari, samarali rahbarlik uslublari, insoniy resurslarni boshqarish, motivatsiya va islohotlarni tizimli yondashuvlar asosida olib borish uchun zarur bo’lgan nazariy va amaliy bilimlar majmuasini beradi. Dissertasiyaviy tadqiqotda bu manba strategik menejment, ichki sifat monitoringi, innovatsion va insoniy omillarga asoslangan ta’lim yondashuvlarini asoslash uchun muhim ilmiy asoslarga ega[2].

Ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi omillarni o’rganish bo’yicha mavjud adabiyotlar tahlili ta’lim sohasining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik jihatlaridan qamrab olishini ko’rsatadi. Har bir omil alohida ahamiyatga ega bo’lib, ularning o’zaro ta’siri ta’lim tizimining samaradorligini shakllantiradi. Kelajakda ta’lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirish uchun bu omillarni sinxron ravishda boshqarish zarur. Adabiyotlar tahlili, ayniqsa, ta’lim siyosati, moliyaviy yordam, madaniy qadriyatlar va texnologiyalarni optimallashtirish yo’nalishlarini belgilashda asosiy manba bo’lib xizmat qiladi.

## METODOLOGIYA

Ushbu maqolada ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi omillarni o’rganishda tizimli tahlil metodologiyasi qo’llanilgan. Tizimli tahlil metodologiyasi — bu muammoning turli tomonlarini o’rganish va ularni bir-biri bilan bog’liq holda tahlil qilishga asoslangan ilmiy usuldir. Ta’lim tizimi murakkab va ko’p qirrali bo’lib, undagi har bir omil o’zaro aloqada bo’lib, tizimning samarali ishlashiga ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli, ushu maqolada quyidagi metodlar qo’llanilgan:

### Tadqiqot metodologiyasi:

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, taqqoslash, statistik va kontent tahlil metodlari, shuningdek, empirik kuzatuv va so’rovnomalar asosida axborotlar to’plash usullari qo’llaniladi

## NATIJALAR

Mazkur maqolada ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan mexanizm —talaba markazli yondashuvni joriy etish — eksperiment shaklida sinovdan o’tkazildi. Eksperiment 2024–2025 o’quv yili davomida Qo’qon universiteti oliy ta’lim muassasasining bakalavriat bosqichi 1-kurs talabalari ishtirokida 3 oy mobaynida amalga oshirildi. Tadqiqotga 40 tadan iborat bo’lgan ikkita guruh olindi: nazorat guruhi (an’anaviy yondashuv bilan ta’lim olganlar) va tajriba guruhi (taklif etilgan mexanizmlar asosida ta’lim olganlar).

Tajriba guruhida o’quv jarayoni quyidagi prinsiplarga asoslangan holda tashkil etildi:


- o'quv dasturlari modul asosida qayta ishlab chiqildi va amaliy topshiriqlar bilan boyitildi;
- keys metodi, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar va loyihaviy yondashuv asosida darslar tashkil etildi;
- baholash vositalari sifatida formativ baholash, o'z-o'zini va tengdosh baholash mezonlari kiritildi;
- darslarda o'qituvchi faqat yo'naltiruvchi rolida ishtirok etdi, assosiy faoliyat talabalarga yuklatildi;
- har bir talaba o'z mustaqil o'quv yo'lini shakllantirdi.

Eksperimentdan oldin va keyin ishtirokchilarining bilim darajasi, kasbiy kompetensiyalari, motivatsiyasi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari va o'rganishga bo'lgan qoniqish darajasi aniqlash uchun testlar, so'rovnomalar, kuzatuvlar va intervyular o'tkazildi. Natijalarning tahlili quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Tajriba guruhi o'zlashtirish darajasi bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha 18 foizga yuqori natijaga erishdi.
2. Kasbiy kompetensiyalar (analitik fikrlash, jamoaviy ishlash, muammolarni hal qilish) bo'yicha tajriba guruhidagi talabalar o'rtacha 20 foiz yuqori baholandi.
3. Mustaqil o'rganish ko'nikmalari, vaqtini boshqarish va mas'uliyat sezish darajasi sezilarli darajada kuchaydi.
4. So'rovnomalar natijasida talabalarning 85 foizi taqdim etilgan yangi yondashuvlardan mammunligini bildirib, o'zlashtirish jarayonining mazmunliroq va amaliyotga yaqinroq bo'lganini ta'kidladi.
5. O'qituvchilar ham dars jarayonining samaradorligi oshganini, talabalarda tashabbus va ijodkorlik kuchayganini qayd etdilar.

Ushbu eksperiment shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha taklif etilgan mexanizmlar amalda sinab ko'rilinganda, ular nafaqat nazarini jihatdan, balki real ta'lim samaradorligi nuqtai nazaridan ham ijobiy natija beradi. Ayniqsa, talaba markazli yondashuv asosida tashkil etilgan darslar bilim olishdan ko'ra faol ishtirok, tanqidiy tahlil va amaliy natijaga yo'naltirilganligi sababli talabalar uchun samaraliroq muhit yaratdi. Amaliyotga yaqinlashtirilgan topshiriqlar esa talabaning soha bo'yicha real muammolarni anglash va ularni tahlil qilish ko'nikmasini kuchaytirdi.

Eksperimental natijalar, shuningdek, o'qituvchilarining professional yondashuvini ham yangilanishga undadi. Dars mazmuni va shaklining o'zgarishi pedagogdan faqat fanni o'qitishni emas, balki ta'lim menejmentini, zamonaviy texnologiyalarni va psixologik yondashuvlarni ham o'zlashtirishni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etadi.




4-diagramma

Yuqoridagi diagramma tajriba guruhida o'tkazilgan eksperiment natijalarini aks ettiradi. Diagrammadan ko'rinish turibdiki, tajriba o'tkazilgandan so'ng barcha ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilgan:

- Bilim darajasi 65% dan 85% ga,
- Kasbiy kompetensiya 60% dan 80% ga,
- Mustaqil fikrash 58% dan 78% ga,
- O'zlashtirish sur'ati 62% dan 82% ga,
- O'qitishdan qoniqish 55% dan 79% ga oshgan.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan yangi ta'limgan yondashuvlari – talaba markazli metodlar, amaliy mashg'ulotlar, faol o'rgatish va samarali baholash tizimlari – o'quvchilarning bilim sifati, motivatsiyasi va kasbiy tayyorgarligini ancha oshirgan. Demak, tajriba yondashuvi ta'limgan sifatini oshirishda real natijadorlikka erishishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, eksperiment davomida sinovdan o'tkazilgan mexanizmlar — o'quv mazmunining amaliyotga yaqinlashtirilishi va talaba markazli yondashuvning joriy etilishi — oliy ta'limgan sifatini sezilarli darajada oshiradi. Bu mexanizmlarni tizimli ravishda butun OTMlar miqyosida joriy etish, ularni normativ hujjatlar bilan mustahkamlash va raqamli monitoring tizimi orqali kuzatib borish ta'limgan islohotlarining keyingi bosqichi bo'lishi zarur.




5-diagramma

Yuqoridagi diagrammada nazorat guruhida tajriba o'tkazilishidan oldin va keyin olingan natijalar taqqoslanmoqda. Diagrammadan ko'rinish turibdi, natijalar o'rtasida faqat minimal o'sishlar kuzatilgan:

- Bilim darajasi 65% dan 68% ga,
- Kasbiy kompetensiya 60% dan 62% ga,
- Mustaqil fikrlash 58% dan 59% ga,
- O'zlashtirish sur'ati 62% dan 64% ga,
- O'qitishdan qoniqish 55% dan 57% ga ko'tarilgan.

Bu ko'rsatkichlar nazorat guruhida an'anaviy o'qitish metodlari qo'llangani tufayli natijalar deyarli o'zgarmaganini anglatadi. O'sish juda sust, ya'ni 1–3% oralig'ida bo'lgan. Bu esa tajriba guruhi natijalari bilan taqqoslaganda taklif etilgan yangi mexanizmlarning samaradorligi va ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Diagramma maqoladagi nazariy takliflar amalda ham ishonchli asosga ega ekanini dalillaydi.



6-diagramma

Yuqoridagi diagramma tajriba guruhi va nazorat guruhining tajriba oldi va keyingi natijalarini birgalikda taqqoslab ko'rsatadi. Diagrammadagi ustunlar orqali har bir ko'rsatkich bo'yicha ikki guruh o'rtasidagi rivojlanish farqi aniq ko'zga tashlanadi:

1. Bilim darajasi:

- Tajriba guruhi: 65% → **85%** (20% o'sish)
- Nazorat guruhi: 65% → **68%** (3% o'sish)

Yaqqol farq mavjud; metodik yangilanishlar samarali bo'lgan.

2. Kasbiy kompetensiya:

- Tajriba guruhi: 60% → **80%**
- Nazorat guruhi: 60% → **62%**

Amaliy va faol metodlar orqali tajriba guruhida sezilarli ijobiy natija qayd etilgan.

3. Mustaqil fikrplash:

- Tajriba guruhi: 58% → **78%**
- Nazorat guruhi: 58% → **59%**

Mustaqil fikrplash bo'yicha faqat tajriba guruhi talabalari rivojlangan, bu interaktiv usullar ta'sirini isbotlaydi.

4. O'zlashtirish sur'ati:

- Tajriba guruhi: 62% → **82%**
- Nazorat guruhi: 62% → **64%**

Tajriba guruhida o'zlashtirish tezlashgan, nazorat guruhida esa deyarli o'zgarmagan.

5. O'qitishdan qoniqish:

- Tajriba guruhi: 55% → **79%**
- Nazorat guruhi: 55% → **57%**

Qoniqish darajasidagi farq tajriba guruhi foydasiga juda sezilarli.

Ushbu diagramma tajriba guruhi uchun ishlab chiqilgan ta'lim mexanizmlari — jumladan, talaba markazli yondashuv, interaktiv metodlar, formativ baholash va amaliy topshiriqlarga asoslangan o'qitish samaradorligini isbotlab bermoqda. Nazorat guruhida esa klassik yondashuvlar saqlanib qolganligi sababli rivojlanish deyarli kuzatilmagan. Natijada, tajriba asosida ishlab chiqilgan metodik yangiliklar ilmiy asoslangan, amaliy natijador va ta'lim sifatini oshiruvchi mexanizmlar sifatida yuqori baholanishi mumkin.

Eksperiment orqali olingen ijobiy natijalar shuni ko'rsatadiki, faqat shaklan emas, balki mazmunan yangilangan ta'lim tizimi orqali raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

4-jadval

#### Eksperiment natijalari taqqoslanma jadvali

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Orasidagi farqi
O'zlashtirish darjasasi (%)	68.0	86.0	17.0
Kasbiy kompetensiyalar bahosi (10 ballik)	6.5	8.3	1.8
Mustaqil o'rGANISH ko'nikmalari (10 ballik)	6.2	8.5	2.3
Ta'lim jarayonidan qoniqish (%)	59.0	85.0	26
O'qituvchilar bahosi (subyektiv, 10 ballik)	6.8	8.9	2.1

## MUHOKAMA

O'zbekiston oliy ta'lif tizimida ta'lif sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar ishlab chiqilib, ularning nazariy va amaliy asoslari tizimli yoritildi. Avvalo, o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash mexanizmlarining dolzarbliji asoslab berildi. Bu yo'nalishda dual ta'lif, loyiha asosidagi o'qitish, sanoat hamkorlik markazlari, ish beruvchilar bilan bevosita aloqalar, mentorlik tizimi va startapga yo'naltirilgan yondashuvlar taklif qilinib, ularning ta'lif jarayonida qo'llanishi orqali o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi, kompetensiyasi va mehnat bozoriga tayyorligi sezilarli oshishi mumkinligi ko'rsatildi.

Shuningdek, talaba markazli yondashuvni joriy etish orqali o'qitish emas, balki o'rganish jarayoniga e'tibor qaratish, o'quv rejalarini moslashuvchanligini ta'minlash, mustaqil ta'lif va reflektiv baholash vositalarini kengaytirish orqali ta'lif jarayonining samaradorligini oshirishga doir aniq takliflar ilgari surildi. Bu yondashuv doirasida talabaning faol subyekt sifatida shakllanishi, motivatsiyasi va javobgarligi ortishi asoslangan holda yoritildi.

## XULOSA

Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish muammosi zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlar, xalqaro tajriba va milliy ta'lif siyosati asosida har tomonlama o'rganildi. Tadqiqot davomida ta'lif sifati tushunchasi, uning indikatorlari, baholash mezonlari, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, mavjud muammolar, shuningdek, takomillashuv yo'nalishlari nazariy va amaliy asosda tahlil qilindi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ilgari surilgan taklif va mexanizmlar ta'lif sifatini oshirishga xizmat qiluvchi tizimli, kompetensiyaga asoslangan, talaba markazli va amaliyot bilan uzviy bog'langan yondashuvlardan iborat bo'lib, ular O'zbekiston oliy ta'lif tizimini modernizatsiya qilishda nazariy va amaliy jihatdan mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Takliflar asosida ishlab chiqilgan metodik va tashkiliy choralar ta'lif jarayonining real sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularni OTMlar miqyosida tatbiq qilish milliy ta'lif tizimining xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

## TAKLIFLARI

Ta'lif tizimi samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydigan omillarni hisobga olgan holda, quyidagi takliflarni kiritish mumkin.

1. Talaba markazli yondashuv asosida o'qitish strategiyalarini joriy etish. O'qituvchilarni talaba markazli metodikalarga o'rgatish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslari tizimli tashkil etilishi kerak. O'qitish jarayonida tanlovli fanlar ulushi kengaytirilib, talabaning individual o'quv trayektoriyasi shakllantirilishi lozim. O'quv jarayoniga formativ baholash, refleksiya, portfoliolar va o'z-o'zini baholash elementlari joriy etilishi tavsiya etiladi.

1. Oila va Ijtimoiy Sharotlarning ta'lif oluvchilarga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda ijobjiy ta'sirini oshirish maqsadida. Ota-onalar bilan uchrashuvlar va treninglar o'tkazish, ularga ta'lifning bolaga va jamiyatga ta'sirini, bilimsizlikning oqibatlarini chuqr tushuntirish foydali bo'ladi.

2. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lifni kuchaytirish. Har bir OTMdA kamida bitta ishlab chiqarish korxonasi yoki xizmat ko'rsatish sohasi bilan uzlusiz hamkorlikda faoliyat yuritadigan "amaliyot markazi" tashkil etilishi zarur. Dual ta'lif modeli asosida haftaning ma'lum kunlarini talabalarning ishlab chiqarishdagi ishtirokiga ajratish, bu vaqtini o'quv yuklamasidan ajratilgan mustaqil ta'lif soatlari bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Ish

beruvchilar bilan hamkorlikda o'quv rejalarini va fan dasturlarini tahlil qilish va yangilab borish mexanizmlari yo'lga qo'yilishi kerak.

3. Raqamli texnologiyalarni baholash va boshqaruvga integratsiyalash. Elektron ta'lif portallari, raqamli darsliklar, video darslar, sun'iy intellekt asosida baholash platformalarining soni va sifati oshirilishi zarur. Har bir fakultetda "Raqamli ta'lif texnologiyalari koordinatori" lavozimi joriy etilib, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish muntazam yo'lga qo'yilishi lozim. Baholash natijalarining tahliliy algoritmlar asosida vizualizatsiyasi, avtomatik tahlili va tavsiyalar ishlab beruvchi tizimlar yaratilishi tavsiyi etiladi.

4. O'qituvchilar va rahbar xodimlar uchun sifat menejmenti bo'yicha doimiy o'quvlar. Har bir OTMda "Ichki sifat nazorati bo'limi" faoliyati kuchaytirilib, u xalqaro sifat menejmenti standartlariga asoslangan holda ishlashi lozim. Sifatni boshqarish, indikatorlar asosida strategik rejalshtirish va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish bo'yicha o'qituvchi va dekanat xodimlari uchun amaliy seminar-treninglar yo'lga qo'yilishi kerak.

5. O'qituvchilarning faoliyati samaradorligini baholash tizimini yangilash. Faoliyat baholovchi tizimlarda dars sifati, ilmiy faoliyat, pedagogik yondashuv, talaba fikri, jamoa bilan ishslash ko'nikmalari, raqamli kompetensiyalar va innovatsion tashabbus kabi mezonlar asosida kompleks baholash tizimi ishlab chiqilishi kerak. Baholash natijalari asosida moddiy va nomoddiy rag'batlantirish mexanizmlari kuchaytirilishi lozim.

Umumiy olganda yuqoridagi takliflar ta'lif jarayonini ma'lum bir darajada samaradorligini oshiradi hamda ta'lif oluvchilarga ta'lif olish jarayonini qulaylashtiradi.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Sh.M.Mirziyoev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz". -Toshkent: O'zbekiston, 2016.- 56b.
2. N.K Yo'ldoshev, G.E.Zaxidov. "Menejment" darslik -Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat" nashiryoti, 2018.-392 b.
3. G. Bozorova, G Ulug'berdiyeva, Artiqova A. ""Ommaviy madaniyat" ning salbiy ta'siri va uning oldini olish yo'llari" maqola.
4. X.T.Tashmetov "global yutuqlardan foydalanishda milliy g'oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari" maqola.
5. U.Z.Shamanova "Ta'lif qonunchiligidagi islohotlarning bugungi kundagi ahamiyati" maqola.
6. S.F. Salaydinova va A.S. Isxakova "Ta'lif xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari" maqola.
7. X.F. Sadikova va A.S. Isakova "Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilariini moddiy rag'batlantirishning samaradorligini oshirish masalalari" maqola.
8. N.R. Aliev A.T. Yuldashev "Ta'lif xizmatlari marketingining o'ziga xos xususiyatlari" maqola.
9. X.T.Tashmetov "Global yutuqlardan foydalanishda milliy g'oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari" maqola.
10. X.X.Muratov "Elektron ta'lif resurslari va multimediali elektron o'qitish vositalari orqali ta'lif muhitining rivojlanishi" maqola.
11. M.Sh.Yusupova "Oliy ta'lif muassasalarida masofaviy ta'lifni o'qitish tizimlari va amaliy imkoniyatlari" maqola.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 8 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).